

JADIDLAR NASRIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN SHAXS OTLARI TAHLILI

Gavxarxon Xabibullaeva Nosirjon qizi

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrası

stajyor-o'qituvchisi

gavharnodirbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadidlar nasriy asarlarida uchraydigan shaxs otlari lingvistik jihatdan tahlil etilgan. Asarda keltirilgan shaxs otlari tematik, struktur va etimologik jihatdan guruhlariga ajratilib, shuningdek, shaxs otlarining badiiy matndagi uslubiy vazifasi, semantik xususiyatlari va muallifning individual uslubini ochishda tutgan o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *etnografizm, evfemizm, qalliq, quda, qarshi quda, pochcha, yanga, ovsin, qaynana, qaynata, qaynag'a, qo'noq, vakil, g'umo, kundosh, bachcha, Azayimxon, xo'ja*

ABSTRACT

This article provides a linguistic analysis of personal names found in the prose works of the Jadids. The personal names cited in the works are classified according to thematic, structural, and etymological principles. In addition, the study highlights the stylistic functions of these names in literary texts, their semantic features, and their role in revealing the author's individual style.

Keywords: *ethnographism, euphemism, qalliq, quda, qarshi quda, pochcha, yanga, ovsin, qaynana, qaynata, qaynag'a, qo'noq, vakil, g'umo, kundosh, bachcha, Azayimxon, xo'ja.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится лингвистический анализ личных имён, встречающихся в прозаических произведениях джадидов. Приведённые в произведениях имена собственные классифицируются по тематическому, структурному и этимологическому признакам. Кроме того, рассматриваются их стилистические функции в художественном тексте, семантические особенности и роль в раскрытии индивидуального стиля автора.

Ключевые слова: *этнографизм, эвфемизм, қаллиқ, қуда, қарши қуда, почча, янга, овсин, қайнона, қайната, қайнага, қўноқ, вакил, ғумо, қўндош, бачча, Азайимхон, хўжа.*

KIRISH

Hozirgi zamon o'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari o'zlarining kelib chiqishi va ma'nosiga ko'ra asosan uchta katta guruhga bo'linadi:

I. Qon-qarindoshlik terminlari. Qon-qarindoshlik terminlariga o'zbek va uyg'ur tilida, shuningdek, boshqa turkiy tillarda, ona, ota, aka, tog'a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nabira kabi ma'nolarni ifodalovchi terminlar kiradi.

II. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlarini er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda xola, quda buva, o'gay ota, o'gay ona, o'gay bola singari terminlar tashkil etadi.

III. Yaqinlik nomlari. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu gruppasi asosan o'zbek, uyg'ur tiliga xos bo'lib, bu termin yuqoridagi ikki guruh terminlardan butunlay farq qiladi, ya'ni bu tutingan so'zi bilan – tutingan ota (+m); tutingan ona (+m); tutingan o'g'li (+m); singari ifodalangan terminlar kiradi.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ishimizda qarindoshlikni bildiruvchi va alohida shaxs otlari hisoblanuvchi ayrim etnografizmlarni tahlil qildik.

Filologiya fanlari doktori A.Omonturdiyev evfemizm haqida fikr yuritib, evfemizmlar etnografik kategoriya² ekanini ta'kidlaydi. Etnograf A.Jo'raboyev turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ham o'zlarining tarixiy taraqqiyot jarayonida nikohning turli shakllarini boshidan kechirganini, buning natijasida kishilarning o'zaro bir-biriga bo'lgan yaqinlik munosabatini ifodalovchi *quda, qaynana, qaynata, kuyov, kelin, xotin, er, yanga, boja, pochcha, ovsin, qaynag'a, qaynini, qaynsingil*³ kabi etnografik atamalarining kelib chiqqanini ta'kidlaydi. Aniqlashadiki, jonli muloqot nutqida uchraydigan qarindoshlik ifodalovchi leksemalar etnografizm hisoblanadi.

Qalliq – biror yigitga unashtirilgan qiz (shu yigitga nisbatan): *Qallig'i to'g'risida so'z ochqan edim, men bilan urishdi*.⁴

Tarixdan bizga ma'lumki, Chig'atoy va ozarbayjon tilida Chingizxon avlodidan uylangan shahzodalar ko'ragan deb nomlangan. Bu atama ham "*kuyov*" ma'nosida ishlatilgan. Bundan bilish mumkinki, qadimgi turkiy xalqlarda kuyov atamasi qadimdan ishlatib kelingan. I.A.Ismoilov "Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari"

¹ Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. Тошкент : Фан, 1966. – Б.10-11.

² Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан. б. фалс. д-ри. (PhD) дисс. автореф. – Тошент, 2009. – Б.6.

³ Журабоев А. Ўзбек тилидаги тўй маросимлари билан боғлиқ атамалар (Андижон шевалари материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1971. – Б.44.

⁴ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Navro'z, 2019. – B.50.

nomli kitobida to‘ydan keyingi qarindoshlik nomlarining turkiy tillarda qo‘llanishi borasida ma‘lumotlar berib o‘tgan. Xususan, kuyov so‘ziga to‘xtalar ekan, bu so‘zning turkiy tillarda qo‘llanilishi borasida shunday yozadi: “Kuyov so‘zi termin sifatida qadimgi zamon turkiy tillarining ko‘pchilligida mavjud, ular fonetik jihatdan uncha katta farq qilmaydi. O‘zbek tilidagi kuyov so‘zining uyg‘ur tilida kuyog‘ul, qozoq tilida kuyev, qirg‘iz tilida kuyvv, qoraqalpoq tilida kuyeo‘, turkman tilida giev kabi fonetik variantlari bordir”⁵.

*Nax bizga **kuyav** bo‘ladigan yigit ekan, – dedi va Kumushka qarab kulib qo‘ydi.*⁶

*Ichkuyov – kelinning ota-onasiga tegishli hovlida ular bilan birga yashovchi kuyov: Tog‘amning bir xotini va bittagina qizi bor bo‘lib qop-qora bir cho‘tir kishini **ich kuyov** qilib unga qizini bergan va undan bir-ikki nabira ko‘rgan ekan.*⁷

*Kelin – yangi turmushga chiqqan yoki chiqayotgan qiz. Domla alhamdulillah, alhamdulillah... bilan nikohni tugatib majlis tomonidan **kelin** bilan kuyavning haqlarig‘a duo boshlanadir, hamma duog‘a qo‘l ko‘tarib, hatto tomdag‘i tomoshachi xotinlarga «omin»ga ko‘maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir.*⁸

Ovsin so‘zi o‘zbek xalqining o‘ziga xos qarindoshlik tizimini ifodalaydi va boshqa madaniyatlarda bevosita ekvivalentga ega bo‘lmasligi sababli, milliy urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi tushuncha sifatida etnografizm bo‘lib xizmat qiladi. Ovsin bir oilaga kelin bo‘lgan ayollar o‘rtasidagi munosabatni bildiradi. Bu tushuncha o‘zbek xalqining oila strukturasida alohida o‘rin tutadi va boshqa madaniyatlardan farqlanadi: *Cho‘zmayman. Senlar ham jim yot, **ovsinlar!** Bir-birini qitig‘lab, hiringlashkan qizlar Nozikning so‘ziga quloq solmadilar.*⁹

*Katta xotin birinchi, bosh xotin hisoblanib, ko‘pxotinlilik mavjud bo‘lgan oilalarda erning birinchi turmush qurgan ayolini anglatadi. Boshqa ayollarga nisbatan yuqori mavqega ega bo‘lgan. Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarlarida ko‘pxotinlilik masalasi, uning salbiy oqibatlari ko‘rsatiladi: **Bechora katta xotin** Xushro‘yning doimiy hujumiga mahkum qolib, eridan loaqal ikkita go‘daklari yuzi uchun bo‘lsin marhamat ko‘rmay azoblanadir.*¹⁰

Katta ona ota yoki onaning onasi sifatida uchrashi mumkin; kichik xotinning bolalari tomonidan va kekxa xotinga nisbatan murojaat shakli sifatida ham

⁵ Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В.112.

⁶ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – В.32.

⁷ Мухаммаджонов М. Ko‘rsatilgan asar. – В.144.

⁸ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – В.32.

⁹ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – В. 74.

¹⁰ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – В. 289.

qo‘llaniladi: *Onasi bilan katta onasi Zebini yomon ko‘radilarmi? Yomon ko‘rsalar, o‘z qizlarini unga muncha jonajon o‘rtoq qildirib qo‘yarmidilar?*¹¹

Qaynota va qaynona. Ushbu qarindoshlik otlari to‘ydan keyin yuzaga keladi. O‘zbek xalqida alohida hurmat va ehtiromga loyiq qadriyatlarga ega hisoblanadi.

Jadidlar nasriy asarlarida qayin ota, qaynata shakllarida uchraydi: *Bittasi mashhur buzuqi toshkandlik Yusufbekning hozirda Marg‘ilonda turg‘uchi o‘g‘li – Otabek ismlik bir yigit, ikkinchisi uning hammaslari va qayin otasi bo‘lg‘an Mirzakarim qutidor*¹²; *Nega bu ish o‘g‘irlik bo‘lsin? – dedi Qori Ishkamba bir oz zardalanib, – men u chetdan chaqirilgan qorilardan ko‘proq va yaxshiroq Qur‘on o‘qib qaynatalarim arvofiga bag‘ishlayman. Buni ahmoq xotinlarim bilmasalar ham xudo biladi.*¹³

Jadid asarlarida qaynona, qaynana, qayin ona shaklida uchraydi: Maslahat natijasida **qaynona** bilan kelin uyda qoladigan bo‘lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko‘z-quloq qilib berilgan edi;¹⁴ – *Joduni kim qildiradir? – Qayin otasi, qayin onasi, qola bersa, xotini;*¹⁵ *Uziqararoq qaynananing qo‘lig‘a tushub qolsa, nima bo‘ladir bu?*¹⁶

O‘zbek xalqining nikoh marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan, faqat o‘zbekona madaniyatga xos bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Quda tushunchasi o‘zbek urf-odatida ikki tomonlama qarindoshlik rishtasini bilan bog‘liq, kuyov va kelinning otionalari o‘rtasidagi munosabatni bildiradi: *Zebini tushirib kelish uchun shaharga borgan xotinlar, ularning o‘z tillari bilan aytsak, “qudalar”, boshlarida Poshshaxonga o‘xshagan eslik va ayyor bir juvon turganiga qaramasdan, negadir kichkina mittini nazardan qochirdilar.*¹⁷

Shuningdek, qarshi quda, ya‘ni qiz bergan honadondan qiz olish yoki aksincha holatlarga nisbatan ishlatiladigan etnografik birikma ham uchraydi: *Qarshi quda bo‘lmoq uchun qizliq va o‘g‘ullik havlini uchratish va buning ustiga “nasl-u nasabda tekislik”, olinadig‘an kelinning silliqina bo‘lishi – ana shunday mushkilotlar orqasida ikki yil chamasi Naimaning umri sarg‘ayib o‘tdi.*¹⁸

Yanga – nikohning ikkinchi kuni kechasi kelin bilan kuyov xizmatida qo‘luvchi xotin: *Domlaning: “Sizkim, Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi?” degan so‘rog‘i olti, yetti*

¹¹ Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B.78.

¹² Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B.65.

¹³ Садриддин Айний. Судхўрнинг ўлими. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1978. – Б.212.

¹⁴ Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B.29.

¹⁵ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B.163.

¹⁶ Abdulhamid Cho‘lpon. Buloqlar quchog‘ida. – Toshkent: Zabarjad media, 2023. – B.92.

¹⁷ Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B.114.

¹⁸ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 10.

qaytarilgʻandan keyin, shunda ham **yangalar** qistogʻi ostida arang uning rizoligʻi olindi.¹⁹

Pochcha – amma, xola yoki opaning turmush oʻrtogʻi. Nikohdan keyingi paydo boʻlgan qarindoshlik terminlari guruhiga kiradi. Qayni erning ukasi uning xotiniga nisbatan va xotinning ukasi uning eriga nisbatan ishlatiladi. Soniya oraga tushdi **pochcha** bilan **qaynini** yarashtirdi: yarashish uchun boy Shoqul sharafiga ziyofat berdi, toʻn kiydirdi.²⁰

Qaynagʻa – erning akasi uning xotiniga nisbatan va xotinning akasi eriga nisbatan qoʻllanuvchi soʻz: *Anavi Aziz shallaqigʻa oʻxshagʻan bir qaynagʻa yoʻluqsa bormi?*²¹

Shuningdek izohli lugʻatda etnografizm sifatida berilgan quyidagi shaxs otlarini jadid asarlarida uchratish mumkin: *Domulla (forscha)* – duoxonlik, issiq-sovuq qilish bilan shugʻullanuvchi shaxs: *Doimo issiq-sovuqchi domulla, xojalarnikida bosh ogʻritib yurishini ham bilar edi.*²²

Xoʻja (forscha) – Oʻrta Osiyoda avvallari maʼlum imtiyozga ega boʻlgan oqsuyaklar va ularning avlodlari: *Men Muhiddin xoʻja degan bir bazzogʻa dalolat qilgʻan edim, ul sizgʻa atab bir yuz pul yigʻib qoʻydi.*²³

Vakil – musulmonlarning nikoh marosimlarida kelin tomonidan tayinlanadigan, kuyov tomonning kelinga beriladigan mol-mulklarni kelishishda qatnashadigan vakil shaxs: *Mehmonxona ayvonida oq soqolliq, koʻrkam siymo va ogʻir tabiatlik domla bilan Ziyo shohichi, Hasanali, qiz vakili va tagʻin bir necha kishilar oʻlturadilar. Yigitlar kuyavni domlalar qarshisigʻa kelturib toʻxtatqandan keyin Otabek vakili boʻlgʻan Ziyo shohichi bilan Kumush qiz vakili Muhammadrahim oralarida mahr masalasi ochiladir.*²⁴

Bir erning nikohidagi bir nechta xotin bir-birlariga nisbatan *kundosh* leksemasi qoʻllaniladi: *...boylarning bir necha xotinlari boʻla turib, uning ustigʻa yosh xotin olib, ikki kundosh oʻrtasida, qancha bolalargʻa uchrashlari; qisqa kiyim kiygan bir musulmon yoki yangi tartib bilan oʻqituvchi bir muallimni koʻrsalar – muna-muna usuli jadidchi! Kofir boʻlgʻan, kofir! deb qoʻllarini bigiz qilib koʻrsatib qolishlari...*²⁵

Azayimxon (arabcha + forsha – afsun oʻquvchi, sehrlovchi, afsungar) – kasallarga dam soluvchi, sehr-afsunlar oʻqib davolovchi duoxon. Ayollarning bilgani, irim, bilgani qaytarma, bilgani **Azayimxon**... *Qovogʻi uchsa ham Azayimxonga*

¹⁹ Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Navroʻz, 2019. – B.58.

²⁰ Садриддин Айний. Судхўрнинг ўлими. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1978. – Б.318.

²¹ Abdulhamid Choʻlpon. Buloqlar quchogʻida. – Toshkent: Zabarjad media, 2023. – B.92.

²² Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Navroʻz, 2019. – B.96.

²³ Мухаммаджонов М. Koʻrsatilgan asar. – B.111.

²⁴ Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Navroʻz, 2019. – B.32.

²⁵ Мухаммаджонов М. Koʻrsatilgan asar. – B.165.

chopadi...²⁶

Bachcha soʻzi bola maʼnosidan tashqari oʻyinchi oʻgʻil bolaʼ sifatida etnografizmdir: *Oʻgʻil toʻyi, qiz toʻyi ham oʻlganlarga qancha minglab chiqim qilib, burch (qarz)gʻa botib uzilmay yurishlari – mana bularning barchasi bizning buzuq tirikchiligimiz (turmushimiz)ning oʻzgʻinasi ekan, yolgʻiz ularda, besoqol oʻynash bilan, bazm berib **bachcha** ke(l)tirib oʻynatishlari yoʻq ekan, shuning uchun teatrlarda bulardan koʻrsatmas ekanlar.*²⁷

*Qoʻnoq – biror joyga, biror kimsaning uyiga qoʻngan, tushgan yoʻlovchi, yaʼni mehmon. Bu vaqt kimdir, tashkaridan bir xotin kishi tovushi eshitildi. Qumribush, **qoʻnoqlar** turishdilar!*²⁸

*Gʻumo – egasiga xotinlik ham qiladigan choʻri: **Nabi polvon boyning choʻri va gʻumolari ham boyning oʻzidan koʻproq ishlayotibdi.***²⁹

NATIJALAR

1-jadval

Jadidlar asarlarida qoʻllanilgan shaxs otlarining mavzuiy boʻlinishi va qatlami

t/r	Shaxs otlariga xos birliklar turlari	Turkiy qatlam	Arabiy qatlam	Forsiy qatlam	Aralash til
1	Qarindoshlikni bildiruvchi shaxs otlari	qalliq, kuyov, kelin, ichkuyov, ovsin, katta xotin, katta ona, qaynata, qaynana, quda, qarshi quda, yanga, pochcha, qayni, yanga, qaynagʻa,			
2	Qarindoshlikni bildirmaydigan shaxs otlari	kundosh, qoʻnoq	vakil	domulla, xoʻja, bachcha, gʻumo	Azayimxon

XULOSA

Qarindoshlikni ifodalovchi etnografizmlar xalqning ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlar, eʼtiqodi, madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklardir. Ularning semantik, stilistik tahlili orqali xalq dunyoqarashini tushunish mumkin.

²⁶ Abdulhamid Choʻlpon. *Kecha va kunduz*. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B.89.

²⁷ Мухаммаджонов М. *Коʻrsatilgan asar*. – B.175.

²⁸ Элбек. *Танланган асарлар*. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 289.

²⁹ Садриддин Айний. *Асарлар*. 3-жилд. Қуллар. – Тошкент: Бадиий адабиёт. 1964. – Б.75.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. MADALIYEVA, Z. (2021). WILLIAM FIERMANS SCIENTIFIC VIEWS ON TWENTIETH-CENTURY UZBEK LITERATURE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 1335-1338.
2. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
3. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.
4. Xabibillayev, N. (2024). HOZIRGI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism). *Молодые ученые*, 2(22), 17-22.
5. Xabibillayev, N. (2024). AZIM HOJIYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(8), 21-26.
6. Habibullayev, N. N. O. G. L., & QOZOQ, V. O. Z. T. M. (2023). SO‘ZLAR CHOG‘ISHTIRMASI.
7. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ ‘Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.
8. G‘anijonovich, T. R. (2025, October). MODAL SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 6, pp. 102-105).
9. Tojimatov, R. (2025). NOUNS CONNECTED WITH THE NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF SAID AHMAD HAJVI. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 418-420.
10. Tojimatov, R. G. A. (2025). SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA KINOYALI HAJVNING LISONIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 461-467.
11. Tojimatov, R. G. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO‘LLANILGAN POETONIMLARNING LINGVOPOETIK, JIHATDAN TAHLIL QILISH TAMOIYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 174-180.
12. Mengliev, D., Nabyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th*

International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM) (pp. 2100-2103). IEEE.

13. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.

14. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.

15. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(5).

16. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

17. Nuritdinov, A. (2022). O 'ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUF FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

18. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O'zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.